



ICARDA
Science for resilient livelihoods in dry areas

CARITAS

Schweiz
Suisse
Svizzera
Svizra



EKOLOGIK MUAMMOLARNING TABIATGA ASOSLANGAN YECHIMLARI (NBSEP)

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

19-20-DEKABR, 2025-YIL



ICARDA
Science for resilient livelihoods in dry areas

CARITAS
Schweizer
Eidgenossenschaft
Svizzera

**O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish
va iqlim o‘zgarishi vazirligi**
**Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti
(Green University)**
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
Xalqaro qishloq xo‘jaligi tadqiqotlari markazi (ICARDA)
Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (IUCN)
CARITAS (Shveytsariya)ning O‘zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda
“Ekologik muammolarning tabiatga asoslangan yechimlari (NBSEP)”
mavzusidagi III-xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
AXBOROT XATI

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturidagi topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida **Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan** 2025-yilning 19-20-dekabr kunlari **“Ekologik muammolarning tabiatga asoslangan yechimlari (NBSEP)”** mavzusida III-xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkaziladi.

Konferensiya ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishining barcha yo‘nalishlarini qamrab oladi.

Anjuman maqsadi –barqaror ekologik boshqaruv va tabiatni muhofaza qilish amaliyotlari orqali ekologik muammolarni hal qilishda tabiatga asoslangan innovatsion yondashuvlarni o‘rganishdan iborat.

Anjumanning asosiy ilmiy yo‘nalishlari:

1. Biologik xilma-xillikni saqlashda innovatsion ilmiy-amaliy yondashuvlar.
2. Iqlim o‘zgarishiga chidamli integrallashgan suv resurslarini boshqarish.
3. Atmosfera havosini muhofaza qilishning dolzarb muammolari va amaliy yechimlari.
4. Chiqindilarni qayta ishlash va utilizasiya qilishning innovatsion texnologiyalari.
5. “Yashil” iqtisodiyot va barqaror rivojlanish: muammo va yechimlar.
6. Ekologik madaniyat, ta’lim, ma’rifat va turizm.
7. Ekologiyada ragamli texnologiyalar va matematik modellashtirish.

Maqolalarni rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar:

– maqolalar o‘zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi. Maqola hajmi **6 betdan** kam bo‘lmasligi lozim.

– maqola matni tahrir qilingan va tegishli sho‘balarning nomi ko‘rsatilgan holda A4 kattalikdagi qog‘ozda, qatorlar orasi 1,5 interval holda, yuqoridan va pastdan 2,5 sm, chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm joy qoldirilib rasmiylashtirilgan maqolalar elektron variantda qabul qilinadi;

– maqola matni sahifalanmagan bo‘lib, uning elektron nusxasi Microsoft Word muharririda Times New Roman shriftida 12 o‘lchamda bo‘lishi lozim;

– maqolaning nomi bosh harflar bilan yoziladi, bir qator qoldirilib, navbatdagi qatordan muallif (lar)ning ismi, sharifi, tashkilot nomi ko‘rsatiladi, shuningdek yozishmalar uchun ma’sul shaxsning electron pochta manzili (*e-mail*). Maqola oxirida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltiriladi. Muallif (lar) maqolada keltirilgan ma’lumotlarning aniqligi va ishonchliligi uchun to‘liq javobgardirlar.

– fayl nomi, muallif familiyasi va tashkilot nomi (Masalan, muallif O‘zbekiston Milliy universitetidan bo‘lsa “B.Abdullayev O‘zMU,” nomi bilan) nomlanishi lozim.

– annotatsiya va kalit so‘zlar o‘zbek, rus va ingliz tillarida yozilishi shart.

Anjuman materiallari elektron shaklda ecoilm.uz saytida joylashtiriladi va maqola mualliflariga yuboriladi. Ingliz tilida tayorlangan eng yaxshi maqolalar Scopus bazasiga kirgan jurnal va “Ekologiya xabarnomasi” jurnalining maxsus sonida chop etiladi.

Materiallarni qabul qilish muddati: 2025-yil 10-dekabrgacha.

Anjuman o‘tkaziladigan kun: **2025-yil 19-20-dekabr**. Anjumanda bevosita va masofadan ishtirok etish mumkin.

Maqolalar qabul qilinganligi to‘g‘risidagi ma’lumot 3 ish kuni ichida mualliflarga yetkaziladi.

Maqolalarni quyidagi elektron manzilga yuborish mumkin: nbsep.uz@yahoo.com

Tashkiliy qo‘mita konferensiya **yo‘nalishiga mos kelmaydigan va** yuqorida keltirilgan **talablarga javob bermaygan** materiallarni chop etmaslik huquqiga ega.

MANZIL: 111104, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Darxon qo‘rg‘oni, Chimkent yo‘li ko‘chasi, 2-uy.

Murojaat uchun telefon: Ulug‘bek Mamajonov (+99890) 946 22 42

SANOAT OQOVA SUVLARINI TOZALASHNING YANGI USULI

Abdullayev Botir Sanayevich
O'zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya (o'zbek, rus va ingliz tillarida).
Kalit so'zlar (o'zbek, rus va ingliz tillarida):
Kirish.
Tadqiqot uslublari.
Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.
Xulosa va tavsiyalar.
Foydalanilgan adabiyotlar.

Ro'yxatga olish qaydnomasi va maqolalarni **2025-yil 10-dekabrgacha** tashkiliy qo'mitaning elektron manziliga yuborishingizni so'raymiz.

**ISHTIROKCHINI RO'YXATGA OLISHNI
RASMIYLASHTIRISH TALABLARI**

RO'YXATGA OLISH QAYDNOMASI

2025-yil 19-20-dekabr, Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ITI,
O'zbekiston Respublikasi, Toshkent vil.,
(2025-yil 10-dekabrga qadar yuborilsin)

Familiyasi, ismi, sharifi (to'liq):	
Tug'ilgan sanasi:	
Ish joyi:	
Lavozimi:	
Ilmiy darajasi, unvoni:	
Telefon raqami:	
Elektron pochta manzili:	
Ma'ruza nomi:	
Ilmiy yo'nalishi:	
Ishtirok etish shakli:	
Sana va imzo:	

Izoh: Qaydnoma har bir ishtirokchiga alohida to'ldiriladi.